

Yurtimizda 3000 yil oldin madaniylashtirilgan mevalar urugʻlari topildi

Oʻtgan asr 70-80-yillarida Sopollitepa yodgorligidan madaniylashgan paxta chigiti, tut, anjir mevalarining topilishi Markaziy Osiyo oʻsimliklar dunyosini oʻrganishda katta oʻzgarish boʻlgan edi. Bu yangilik Oʻzbekiston hududi ham Qadimgi Misr va Hindiston bilan bir qatorda paxtaning vatanidan biri ekanligini tasdiqladi.

Ushbu yoʻnalishdagi izlanishlar 2016-yildan buyon "Inson va muhit" mavzusida qazuv tadqiqot ishlarini olib borayotgan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologik tadqiqotlar instituti va Xitoy Xalq Respublikasining Ijtimoiy fanlar akademiyasi Paleobotanika va paleoantrapologiya instituti bilan tuzilgan qoʻshma arxeologik ekspeditsiya tomonidan ham davom ettirilib, Surxondaryoning bronza davri yodgorliklaridagi qadimgi oʻsimlik dunyosini oʻrganishda bir qator muhim ilmiy natijalarni qoʻlga kiritishga muvaffaq boʻldi. Xususan, Jarqoʻton yodgorligida olib borilgan qazish ishlari natijasida yodgorlik ibodatxonasi qatlamlaridan madaniylashgan pista, bodom, xurmo, oʻrik, shaftoli, olma, uzumning 6 xil navi, nok, poliz ekinlaridan tarvuz, boshhoqli ekinlardan arpa va bugʻdoyning ikki va olti qatorlik navlari, noʻxot, tariq va yosmiq oʻsimliklarini qoldiqlarini aniqlanishi yurtimizni qadimdan insonlar yashashi uchun qulay boʻlganligi va ziroatchilik yuqori darajada rivojlanganligini koʻrsatmoqda.



